

## TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA RISKLARINI OLDINI OLISH VA BOSHQARISH

**Azimova Dilnoza Azamatovna**

*Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi*

[dilnoza.azamatovna@mail.ru](mailto:dilnoza.azamatovna@mail.ru)

+998909472762

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan globallashtirish va transmilliylashuv jarayonlari deyarli har bir korxonada global makroiqtisodiy o'zgarishlar ta'siri ostida qolishiga olib kelmoqda. Ushbu makroiqtisodiy o'zgarishlar har xil turdagi risklarning paydo bo'lishiga olib keladi, ular orasida o'z navbatida valyuta risklarini qamrab oluvchi moliyaviy risklar ajralib turadi. Valyuta risklari yuzaga kelishining asosiy sababi valyuta kurslarining o'zgarishidir, shunday global jarayonlardan biri bo'lgan valyuta kursining o'zgarishi tahlil va bashorat qilish qiyin bo'lgan hodisadir. Bunday o'zgarishlar barcha korxonada va firmalarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina hollarda ularning faoliyati eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq va shu sababli, kreditorlar va qarz oluvchilar, investorlar, xo'jalik subyektlari o'z bizneslarini milliy valyutaga nisbatan xorijiy valyutalarda amalga oshirishni ma'qul ko'radilar.

Tijorat banklari doimiy ravishda o'z mijozlaridan ayirboshlash kursining kutilmagan o'zgarishlaridan yuzaga keladigan zararlarning oldini olishi uchun turli yo'llar orqali harakat qiladilar. Banklar o'z mijozlari qatori risklarni minimallashtirish manfaatini ko'zlaydilar. Foiz risklari holatida xalqaro banklar va firmalar, odatda, valyuta kursining taxminlashtirishga juda ko'p vaqtlari va harakatlarini sarflaydilar. Valyuta taxminlashtirish milliy foiz stavkalarini baholashdan ancha murakkab hodisa ekanligini isbotlab berdi. Bunga asosiy sabab bo'lib, har qanday davlatda ichki foiz stavkalariga nisbatan, ayirboshlash kurslarining juda ko'p miqdordagi murakkab o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega ekanligidir. Valyuta kurslari va foiz stavkalarini taxminlashtirishga qiziqish, va o'z navbatida, xorijiy valyutalar pozitsiyasini ochiq qoldirish korporativ xazinachilikda yuqori bo'lib turibdi, bu esa, ba'zida salbiy natijalarga olib keladi.

Tijorat banklaridagi valyutani ayirboshlash bo'linmalari ham, odatda ochiq pozitsiyalarni ushlab turishga harakat qilishadi: uzun pozitsiyani ya'ni xorijiy valyuta zahiralari ko'paytirish yoki qisqa pozitsiyani ya'ni xorijiy valyuta zahiralari kamaytirishni qoldiradilar. Bu holat, odatda, bank iqtisodchisi yoki bosh valyuta dileri tomonidan tayyorlangan va yuqori rahbariyat tomonidan

ma'qullangan bog'liq valyuta taxminlashtirishga asoslangan, maqsadli risklarni qabul qilishdir. Bu esa, o'z navbatida, bank uchun katta xatar keltiradi.

Banklar barqaror siyosatni ishlab chiqishlari, ya'ni xorijiy valyutada barcha aktiv va majburiyatlar miqdori hamda muddatlariga limit o'rnatishlari hamda har bir alohida valyuta limitlari bo'yicha doimiy monitoring va davriy kuzatishni amalga oshirishlari zarur. Bunday siyosat bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar va limitlar bankning kredit siyosatida mukammal belgilanishi shart. Hozirgi kunda vakolatli banklar valyuta amaliyotlarini qo'llash doirasini jahon tajribasiga muvofiq kengaytirishga yordam beradigan shart-sharoitlar yaratishlari lozim. O'zbekiston valyuta bozorini erkinlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini hisobga olgan holda, manfaatdor idoralarga xalqaro valyuta bozori faoliyat yuritish uslublarini diqqat bilan o'rganish hamda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida, valyuta risklarini tartibga solish instrumentlarini qo'llashni kengaytirishlar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tijorat banklarining valyuta bozorida faoliyatini Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi, bank tizimidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 40-moddasiga muvofiq, Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish bo'yicha davlat organi bo'lib hisoblanadi. Bu masalaning dolzarbligi, asosan, ko'pgina yirik vakolatli banklar aktivlarining asosiy qismini valyuta sohasiga yo'naltirilganligi, ya'ni xorijiy valyutadagi aktivlardan iboratligi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tamoyillari va valyuta qimmatliklari bilan ishlash tartibi O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 maydagi «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuni bilan aniqlanadi. Ushbu qonun talablariga muvofiq, O'zbekiston hududida xorijiy valyuta bilan bog'liq barcha hisob-kitoblar faqat vakolatli banklar orqali, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta operatsiyalarini o'tkazishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bo'lgan tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday litsenziyaga ega bo'lgan tijorat banklari, vakolatli banklar hisoblanadilar.

Tijorat banklarining valyuta faoliyatlarini tartibga solishda ochiq valyuta pozitsiyasining yuritilishi haqidagi hisobot muhim o'rin tutadi. Bu hisobot tahlil qilinishining zarurati, Markaziy bank tomonidan respublikadagi mavjud vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishga qaratilgan siyosati bilan izohlanadi. Chunki, Markaziy bank tomonidan vakolatli banklarga chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalarga limit o'rnatiladi. Bu tartib bo'yicha bankning o'z mablag'lariga nisbatan 20 foizgacha valyuta sotib olishi va

sotishiga ruxsat bor. Bir valyuta turi bo'yicha bu ko'rsatkich 5% qilib belgilangan. Limit o'rnatishning asosiy sababi, vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishdir. Chunki, vakolatli banklar barcha aktivlarini chet el valyutalariga qo'ysa, va bu valyutalarning kursi jahon valyuta bozorida tushib ketsa, bank aktivlari kamayishi va hatto bank bankrot bo'lishi mumkin, bu o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining sekin-astalik bilan inqirozga yuz tutishiga olib keladi. Shuning oldini olish maqsadida, bu limit barcha vakolatli banklar uchun joriy qilingan.

Tijorat bankida valyuta risklarini boshqarishning amaldagi tizimini takomillashtirish uchun davlat va qonunchilik darajasida ham, alohida bank va uning valyuta risklarini boshqarishning ichki darajalarida ha chora-tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yuqori darajadagi likvidlikni, bankning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash va tavakkalchilikni amalga oshirish bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun tashkil etilgan rezervlar miqdorini oshirish imkoniyatini qayta ko'rib chiqish kerak. Zahiralarini sof foyda va dividend to'lovlari hisobidan qo'shimcha shakillantirish mumkin.

Markaziy bankning valyuta siyosatining ta'sirchanligini oshirish uchun hukumatning tashqi qarzini to'lash bilan bog'liq operatsiyalarni to'liq Markaziy bank ixtiyoriga berish lozim. Ushbu masala hal qilinmasa, Markaziy bank valyuta mablag'lari harakatini pul massasiga ta'siri bilan bog'liq jihatlarini to'liq nazorat qilish imkoniyatiga ega emas. Yaqqol ko'rinib turibdiki Markaziy bank hukumatning tashqi qarzini to'lash bilan bog'liq valyuta mablag'larining harakatida bevosita ishtirok etish huquqiga ega emas. Hukumatning o'zi moliyalashtirish manbalariga ega ekanligi Markaziy bankning ushbu jarayondagi ishtirokini cheklab qo'yadi. Shu bilan birga, hukumatning tashqi qarzini to'lashda manba bo'lib xizmat qiluvchi Respublika Valyuta Fondi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bank huzuridadir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta siyosati doirasida amalga oshiradigan asosiy vazifalaridan biri mamlakatda tijorat tusidagi valyuta operatsiyalarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish hisoblanadi. Hozirda muddatli operatsiyalarni rivojlantirish juda dolzarb va murakkab masaladir. Buning uchun esa, joriy bozorni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, Respublika Valyuta Birjasini likvidligini to'liq ta'minlash lozim. Chunki, har qanday turdagi muddatli valyuta operatsiyasi "Svop", "Forward", valyutaviy operatsionlar bilan bog'liq operatsiyalar pirovard natijasida SPOT bozorining likvidligiga bog'liq. Markaziy bank "GOLD-SVOP" operatsiyalari vositasida SPOT bozorining likvidligini ma'lum vaqt mobaynida ta'minlab turishi mumkin. Ammo, bunda SPOT bozoridagi likvidlik doimiy

tusga ega bo'lishi lozim. Aks holda "GOLD-SVOP" operatsiyalari jiddiy zarar keltirishi mumkin. Bunda SPOT bozorining likvidligi yanada pasayib ketishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Макаревич, Л. М. Управление предпринимательскими рисками / Л. М. Макаревич. – М.: Дело и Сервис, 2016. – 448 с
2. Abdullaeva SH.Z. Qulliyev I.M. O'quv uslubiy qo'llanma,-T.: «Bank risklaril», 2014
3. Ro'ziyev O.A Xalqaro moliya munosabatlari, 2013
4. Mamatqulov X.M. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Ma'ruzalar kursi. Samarqand, 2006
5. Bobakulov T.I, Abdullaev U.A. O'quv uslubiy qo'llanma: Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, 2014
6. Савчук Т.А. Теневая банковская система: масштабы, риски. Регулирование//Банковское дело. - Москва, 2013. - №6. - С. 37-43
7. www.cbu.uz

### ISHTIROKCHI ANKETASI

Familiya	Azimova
Ismi	Dilnoz
Sharifi	Azamatovna
Ish (o'qish) joyi (to'liq)	Bank-moliya akademiyasi
Egallab turgan lavozimi	Tinglovchi
Ilmiy daraja	
Ilmiy unvon	
Telefon raqami (mobil va uy)	+99890-947-27-62
Faks	
e-mail	Dilnoza.azamatovna@mail.ru
Maqolaning nomlanishi	Tijorat banklarida valyuta riskini oldini olish va boshqarish
Maqola taqdim etilayotga sho'ba nomi	